



KO‘P QIRRALI HAMKORLIK VA O‘ZARO SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA YANGI TAYINLANGAN ELCHILARGA ISHONCH BILDIRILDI

28-iyul kuni xorijiy davlatlarning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchilari tomonidan ishonch yorliqlarini topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev favqulodda va muxtor elchilar — Italiya Respublikasidan Guido de Sanktis, Falastin Davlatidan Vaill Battrexi, Saudiya Arabistoni Podshohligidan Saad Abu Xaymid, Kuvayt Davlatidan Turki Al-Mekrad, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasidan Jamila Ashur, Malayziyadan

Rafeda binti Abdul Aziz, Pokiston Islom Respublikasidan Muhammad Mudassir Tipu, Ozarbayjon Respublikasidan Rashad Mamedov va Qozog‘iston Respublikasidan Yerali Tugjanovlarning ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi. Davlatimiz rahbari diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini Yangi O‘zbekistondagi sharaflı missiyasi

boshlangani bilan chin qalbdan samimiy tabrikladi.

Dunyoda turli geosiyosiy ziddiyatlar tobora avj olayotgan hozirgi murakkab davrda diplomatlarning mas‘uliyatli faoliyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etishi ta‘kidlandi.

Prezidentimiz har bir elchiga murojaat qilib, ular vakillik qilayotgan davlatlar bilan

hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha vazifalarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Italiya katta siyosiy va iqtisodiy salohiyatga ega muhim sherik ekani ta‘kidlanib, “yashil” energetika, metallurgiya, kimyo, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, ta‘lim va turizm sohalaridagi loyihalar amalga oshirilayotgani, Toshkent shahrida Turin politexnika va Piza universitetlari

filiarlari samarali faoliyat yuritayotgani qayd etildi.

O‘zbekiston yetakchisi Lombardiya va Toskana hududlari bilan hamkorlik aloqalari, xususan, tibbiyot xodimlarini tayyorlash bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Falastin bilan munosabatlar azaliy do‘stlik ruhida rivojlanmoqda. O‘zbekis-

ton Isroil-Falastin muammosini “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida tinch yo‘l bilan hal etish tarafdori bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizning Tinchlik kengashiga ta‘sischi davlat sifatida kirishi G‘azoni qayta tiklashga ko‘maklashishga qaratilgani qayd etildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG‘ISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-iyul kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Ostona shahrida “Kelajak o‘yinlari” uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etadi.

“Kelajak o‘yinlari” o‘zida an‘anaviy sport turlari va ularning raqamli shakllarini mujassam etgan.

Musobaqa 29-iyuldan 9-avgustga qadar 50 dan ortiq mamlakat vakillari, jumladan, O‘zbekiston sportchilari ishtirokida o‘tkaziladi.

O‘ZA

SAUDIYA ARABISTONI BILAN USTUVOR LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi sog‘liqni saqlash vaziri Fahad bin Abdulrahmon al-Jalajil boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

So‘nggi yillarda hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ayniqsa, “ACWA” kompaniyasi bilan yirik qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotgani alohida ta‘kidlandi.

Tashrif doirasida Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari rahbarlaridan iborat nufuzli delegatsiya bilan samarali

muzokaralar o‘tkazilib, qator kelishuvlarga erishildi.

Muloqot davomida mamlakatimizda tibbiyot sohasini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish, farmatsevtika tarmog‘ini tartibga solish, kadrlar tayyorlash, ko‘p tarmoqli shifoxona barpo etish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida yangi loyiha hamda tashabbuslarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va qabul qilishga kelishib olindi.

O‘ZA

ISSIQLIK TA‘MINOTI TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH BO‘YICHA LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahridagi qozonxonani kogeneratsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Kuz-qish mavsumida aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarini barqaror issiqlik bilan ta‘minlash, tizimda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish — muhim vazifa.

Bugungi kunda Nukus shahridagi 47 ta ko‘p qavatli uy markaziy isitish tizimiga ulangan, yana 270 ta uy lokal isitish tizimidan foydalanmoqda. Qolgan ko‘p qavatli uylardagi xonadonlar turli qo‘lbola isitish vositalari orqali isitilmoqda. Bunday

vositalar ko‘p energiya sarflashi bilan birga odamlar salomatligi va hayoti uchun ham jiddiy xavf tug‘diradi.

Shahardagi mavjud markaziy qozonxona 1976-yilda qurilgan bo‘lib, hozirda asosan ijtimoiy soha obyektlariga xizmat ko‘rsatmoqda. Uning uskunalari ma‘nan va jismonan eskirgan, energiya samaradorligi esa past.

Hozirgi qozonxonada 1 gigakaloriya issiqlik ishlab chiqarish uchun qariyb 153

kub metr tabiiy gaz va 30 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanmoqda. Uning amaldagi quvvati soatiga atigi 1,6 gigakaloriyani tashkil etadi.

Taqdimotda ushbu qozonxonani davlat-xususiy sheriklik asosida kogeneratsiya texnologiyalari bilan modernizatsiya qilish loyihasi ko‘rib chiqildi.

Kogeneratsiya texnologiyasi bitta yoqilg‘i manbaidan bir vaqtning o‘zida elektr va issiqlik energiyasi ishlab

chiqarish imkonini beradi. Bu resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlari va atrof-muhitga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Loyiha doirasida soatiga 34,4 gigakaloriya issiqlik va 21,5 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega zamonaviy majmua barpo etiladi.

Davomi 2-betda

Yangi bosqich, yangi mas‘uliyat, aniq natija

HAR BIR AYOL — DAVLAT E‘TIBORIDA, OILA — ISLOHOTLAR MARKAZIDA

Har qaysi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy yuksalish, sohalar taraqqiyoti va moliyaviy barqarorlikning haqiqiy samarasi, avvalo, oilalar hayotida, ularning turmush farovonligi, barqaror daromadi va ertangi kunga ishonchida namoyon bo‘ladi. Har qanday islohotning ahamiyati esa uning inson va oila hayotida qanday o‘zgarishlarga muhim omil bo‘lgani bilan o‘lchanadi.



BMT tahlillarida ham bejiz oila tenglik va adolat qaror topadigan makonga aylanganida iqtisodiyot ham, jamiyat ham ravnaq topishi alohida ta‘kidlanmaydi. Oila — jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini va uning barqarorligini ta‘minlaydigan eng muhim tayanch. Oiladagi muhit, farzand tarbiyasi, xotin-qizlarning ta‘lim olishi, mehnat qilishi, qobiliyat va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishi uchun yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlar mamlakatning buguni va istiqboliga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu ma‘noda, oila va xotin-qizlar masalasi alohida ijtimoiy yo‘nalish emas, mamlakat kelajagini belgilaydigan strategik omildir.

Davomi 3-betda

2026-yil 29-iyul, 152-son

KOʻP QIRRALI HAMKORLIK VA OʻZARO SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH YOʻLIDA YANGI TAYINLANGAN ELCHILARGA ISHONCH BILDIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Saudiya Arabistoni bilan hamkorlik boshqalar uchun namuna boʻlmoqda. Davlatimiz rahbari 25 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllangani, Saudiya taraqqiyot jamgʻarmasi islohotlarimizga faol koʻmak koʻrsatayotganini alohida eʼtirof qildi.

Qolaversa, tibbiyot, farmatsevtika va “yashil” energetika sohaslarida katta salohiyat mavjudligi qayd etildi. Shuningdek, fuqarolarimizga Haj va Umra ziyoratlari uchun yaratilayotgan sharoitlar yuqori baholandi.

Kuvayt bilan savdo-iqtisodiyot, investitsiya, infratuzilma, sogʻliqni saqlash va taʼlim sohaslarida aloqalarni yangi bosqichga koʻtarish, Kuvayt investitsiya agentligi bilan neft-kimyo tarmogʻida va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar borligi taʼkidlandi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarning toʻliq ijro etilishi xalqlarimiz manfaatlariga birdek xizmat qilishi bildirildi.

Jazoir bilan soʻnggi yillarda yuqori darajadagi muloqotlarimiz faollashgani eʼtirof qilindi.

Shuningdek, neft-gaz, energetika, togʻ-kon, qishloq xoʻjaligi va turizm sohaslarida izchil rivojlanib bormoqda. Oliy va yuqori darajadagi muloqotlar faollashdi. Bozorimizga ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari faol kirib kelmoqda.

Oʻzbekiston yetakchisi yarim oʻtkazgichlar, neft-kimyo, islom moliyasi va ziyorat turizmi sohaslarida hamkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat borligiga urgʻu berdi.

Pokiston bilan strategik sheriklik munosabatlari oʻzaro hurmat va ishonch ruhida rivojlanib, yangi sifat bosqichiga koʻtarildi.

Toshkent — Karachi yoʻnalishida toʻgʻridan toʻgʻri aviaqatnovlar yoʻlga

ISSIQLIK TAʼMINOTI TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH BOʻYICHA LOYIHALAR KOʻRIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda


Shuningdek, 28 kilometr issiqlik tarmogʻi tortilib, 189 ta individual issiqlik punkti oʻrnatiladi. Koʻp qavatli uylar va ijtimoiy obyektlarning ichki isitish tizimlari tiklanadi, zarur gaz va elektr infratuzilmasi yangilanadi.

Birinci bosqichda 136 ta koʻp qavatli uyda qariyb 6 ming xonadon, yaʼni 23 ming nafar aholi hamda 40 ta ijtimoiy soha obyekti markazlashgan issiqlik taʼminoti bilan qamrab olinadi. Keyingi bosqichlarda Nukus shahridagi barcha koʻp qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarini markazlashgan issiqlik tizimiga ulash koʻzda tutilgan.

Loyihaning dastlabki bosqichiga 20 million dollardan ziyod toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiya jalb qilinib, majmuani 2028-yil fevral oyida toʻliq ishga tushirish rejalashtirilgan.

Modernizatsiya natijasida qozonxonaning foydali ish koeffitsiyenti 80 foizdan 91 foizga oshadi. Issiqlik ishlab chiqarish hajmi bir necha oʻn barobar koʻpayib, yiliga 172 ming megavatt-soatgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Davlatimiz rahbari Qozogʻiston elchisiga murojaat qilar ekan, mamlakatlarimiz oʻrtasidagi azaliy doʻstlik rishtalari mustahkamlanib, hozirgi vaqtda strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari kengayib borayotganini taʼkidladi.



Guldona AVEZDURDIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Respublika turkman madaniyat markazi raisi

Prezidentimiz taʼkidlaganidek, “Hech shubhasiz, yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillik noyob ijtimoiy hodisa boʻlib, bugun — yangi Oʻzbekiston sharoitida yangicha maʼno-mazmun va anʼanalarga ega boʻlib borayotgani diqqatga sazovordir. Barchamiz uchun aziz va moʻtabar boʻlgan Vatanimiz aynan shu asosda inson qadri va baxti ulugʻlanadigan tom maʼnodagi tinchlik, doʻstlik va mehr-oqibat diyoriga aylanib bormoqda...”

Nuqtayi nazar

Yangi Oʻzbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini koʻrish uchun uzoqqa borish shart emas. Buni Toshkent viloyati misolida ham yaqqol sezish mumkin. Zero, katta iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatga ega hudud soʻnggi yillarda barcha sohalar boʻyicha muhim oʻzgarishlarga yuz tutmoqda, pirovardida ulkan natijalarga erishilmoqda.

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizi toʻgʻri keladigan viloyat iqtisodiyoti bir necha barobarga oʻsib, oxirgi besh yilda 16 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingani ham fikrimizni isbotlaydi. Bugun chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni qariyb 3 mingga yetdi. Avvalgi yillarda viloyatda eksport hajmi 1 milliard dollarni ham tashkil etmagan boʻlsa, hozir ushbu koʻrsatkich 3 milliard dollarga yaqinlashdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 22-iyul kuni viloyatning Oʻrta Chirchiq tumani va Nurafshon shahriga tashrifi esa, shubhasiz, hudud aholisi hayotida navbatdagi tarixiy sahifalarni ochdi. Tashrif doirasida transport, ijtimoiy infratuzilma, raqamli texnologiyalar, sanoat hamda shaharsozlik sohaslarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish asnosida yirik bunyodkorlik loyihalariga start berildi. Ayniqsa, viloyatni Toshkent shahri bilan yagona iqtisodiy va transport makoni sifatida rivojlantirishga xizmat qiladigan loyihalar alohida ahamiyatga ega.

Masalan, A-373 va Toshkent katta xalqa yoʻllari kesishmasida barpo etilgan yangi yoʻl oʻtkazgich harakat xavfsizligini oshirish, tirbandliklarni kamaytirish hamda poytaxt bilan Nurafshon shahri oʻrtasidagi qatnov vaqtini 10-15 daqiqaga qisqartirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Kelgusida Toshkent — Nurafshon yoʻnalishida tezyurar avtobus hamda zamonaviy poyezdlar qatnovi yoʻlga qoʻyiladi.

Oʻrta Chirchiq tumanidan boshlanuvchi Toshkent — Samarqand yoʻnalishidagi pullik muqobil avtomobil yoʻli qurilishi viloyat infratuzilmasini yanada yaxshilaydi, qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratib, aholi daromadining oshishiga xizmat qiladi.

Bugun har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa,

UMUMMILLIY BIRDAMLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIKNING MUSTAHKAM ASOSI

Oʻzbekiston azaldan turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelayotgan koʻp millatli davlatdir. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib, bu nafaqat ichki barqarorlikni mustahkamlash, balki tashqi siyosatda oʻzaro ishonch va yaxshi qoʻshnichilik munosabatlari rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

30-iyul – Xalqlar doʻstligi kuni

yosh avlodga yetkazish hamda xalqlar oʻrtasidagi doʻstlikni mustahkamlash borasida samarali faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, ikki mamlakat hududlari oʻrtasidagi hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. Xususan, Buxoro va Xorazm viloyatlari hamda Turkmanistonning Lebap va Toshhovuz viloyatlari oʻrtasida amalga oshirilgan oʻzaro tashriflar hududlararo aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikning yangi yoʻnalishlarini belgilab olishga zamin yaratdi.

Ikki davlat oʻrtasidagi madaniy aloqalar adabiyot sohasida ham izchil rivojlanmoqda. Oʻzbekistonda Maxtumquli, Mullanafas kabi turkman mumtoz adabiyoti namoyandolari yubileylari keng nishonlanib, ularning asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilinmoqda. Bu esa ikki xalqning maʼnaviy yaqinligini mustahkamlamoqda.

Millatlararo munosabatlari sohasida davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish maqsadida Oʻzbekistonda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari jamiyatda umummilliy birdamlikni mustahkamlash, turli millat va elat vakillarining huquq va qonuniy manfaatlarini taʼminlashga xizmat qilayotir.

2024-yilda boʻlib oʻtgan saylov natijalari mamlakatimizda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratilganining yana bir amaliy tasdiqʻi boʻldi. Mamlakatimiz tarixida ilk bor aralash — majoritar va proporsional saylov tizimi asosida shakllangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibida turli millat vakillarining faol ishtirok etayotgani yangi Oʻzbekistonda millatlararo totuvlik va tenglik tamoyillari hayotda oʻz ifodasini topayotganini koʻrsatadi.

Mazkur yoʻnalishdagi islohotlar ke- yingi yillarda yangi sifat bosqichiga

koʻtarildi. Prezidentimizning 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoni hamda uning ijrosini taʼminlashga qaratilgan “Oʻzbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlari va xorijdagi vatandoshlar masalalari boʻyicha qoʻmitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori sobani rivojlantirishning mustahkam huquqiy asosini yaratdi.

Ushbu hujjatlarga muvofiq, Millatlararo munosabatlari va xorijdagi vatandoshlar masalalari boʻyicha qoʻmitaning maqomi, vakolat va imkoniyatlari yanada kengaytirildi. Bu davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, umummilliy birdamlikni mustahkamlash hamda xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni tizimli asosda rivoj- lantirish imkonini berdi.

Natijada mamlakatimizda millatlararo totuvlik, oʻzaro hurmat va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan mutlaqo yangi yondashuv shakllanmoqda. Bu jarayonda milliy madaniy markazlar, jamoat tashkilotlari va davlat idoralarining oʻzaro hamkorligi tobora kuchayib, jamiyatda fuqarolik birdamligini taʼminlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bu boradagi islohotlar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, turli millat va elat vakillarining huquq va manfaatlarini taʼminlash hamda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun mustahkam ijtimoiy poydevor yaratishga xizmat qilmoqda. Millatlararo totuvlik va bagʻrikenglik Oʻzbekistonning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida taraqqiyotimizning ishonchli kafolati boʻlib qolmoqda.

BUNYODKORLIK DAʼVATI, ISHONCH KAFOLATI, QATʼIYAT VA SHIJOAT RAGʻBATI

mamlakat taraqqiyoti oqsaydi, koʻzlangan maqsadlarga erishib boʻlmaydi. Buyuk ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiy asos solgan algoritmlar bugun global iqtisodiyotning oʻzagi va insonlar kundali hayotining ajralmas qismiga aylandi. Chunki hozirgi dunyoda raqobat yillar va oylar bilan emas, daqiqa va soniyalar bilan oʻlchanmoqda. Raqamlashtirishni ortga surgan, sunʼiy intellektni oʻzlashtirmagan va innovatsiyalarga sarmoya kiritmagan davlatlar global taraqqiyotdan ortda qolishi turgan gap.

Davlatimiz rahbarining Nurafshon shahrida axborot xavfsizligi va raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan “Cyber University” davlat universiteti faoliyati bilan tanishuvi va bu yerda Kelajak texnologiyalari markazi qurilishiga tamol toshi qoʻygani “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida

belgilangan vazifa — mamlakatimizni mintaqaviy AT xabga aylantirish maqsadiga erishish yoʻlidagi navbatdagi muhim qadam boʻldi.

Markazda kiberxavfsizlik, sunʼiy intellekt, bulutli texnologiya va kriptografiya yoʻnalishlarida oltita zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi. Sunʼiy intellekt data-markazi va muhandislik klasteri, himoyalangan kompyuter hamda maʼlumot uzatish qurilmalari, yuqori texnologik tokenlar ishlab chiqarish markazi barpo etiladi. Uchuvchisiz dron qurilmalari va robototexnika vositalarini sinovdan oʻtkazish uchun maxsus poligon faoliyati yoʻlga qoʻyiladi. Eng muhimi, mazkur innovatsion ekotizimda 5 mingdan ziyod yuqori malakali ish oʻrni yaratiladi.

Umuman, ushbu markaz viloyatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va hududning

Davlatimiz rahbarining tashrifi doirasida Xitoy, Rossiya va Germaniya kompaniyalari ishtirokida amalga oshiriladigan, umumiy qiymati 465 million dollar boʻlgan 9 ta yangi loyiha qurilishiga ham start berildi. Yangi quvvatlar yana 5 mingga ish oʻrni yaratish va aholining zamonaviy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayishiga zamin yaratadi.



Zuhra MIRGʻOZIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

innovatsion salohiyatini yuksaltirishga katta turtki beradi.

Davlatimiz rahbarining tashrifi doirasida Xitoy, Rossiya va Germaniya kompaniyalari ishtirokida amalga oshiriladigan, umumiy qiymati 465 million dollar boʻlgan 9 ta yangi loyiha qurilishiga ham start berildi. Yangi quvvatlar yana 5 mingga ish oʻrni yaratish va aholining zamonaviy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayishiga zamin yaratadi.

Prezidentimizning Nurafshon shahridagi “Yangi Oʻzbekiston” bogʻida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvi nafaqat viloyat ahli, balki ushbu hududdan saylangan deputat sifatida mening hayotimda ham unutilmas voqea boʻldi. Mamlakatimiz yetakchisi bilan samimiy uchrashuv tafsilotlarini soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Toshkent viloyati faollari, tadbirkor va fermerlar, ziyolilar, nuroniy va sergʻayrat yoshlar bilan birgalikda bu zaminni yanada yashnatish, yurtimiz taraqqiyotining mustahkam hamda qudratli tayanchiga aylantirish borasidagi taʼkidi esa, shubhasiz, hudud aholisining yangi Oʻzbekiston kelajagiga ishonchini, islohotlar jarayonida shunchaki kuzatuvchi emas, faol qatnashchiga aylanishiga boʻlgan qatʼiyatini yanada oshirdi.

Yangi bosqich, yangi mas’uliyat, aniq natija

HAR BIR AYOL – DAVLAT E’TIBORIDA,
OILA – ISLOHOTLAR MARKAZIDA

Dilnoza KATTAXONOVA,
Bosh vazir o‘rinbosari —
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Oilada o‘z vaqtida yechilmagan muammo keyinchalik mahalla va jamiyat miqyosidagi murakkab ijtimoiy masalaga aylanishi mumkin. Aksincha, bitta xotin-qizga o‘z vaqtida yaratilgan ta’lim, kasb, daromad yoki huquqiy himoya imkoniyati butun oilaning turmush tarzi va farzandlar kelajagini o‘zgartirishga qodir. Xotin-qizlarga yaratilgan har bir imkoniyat, aslida, oilaning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga kiritilgan sarmoyadir.

Bugun O‘zbekistonda 19,3 million nafar xotin-qiz istiqomat qilmoqda. Bu mamlakat aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan ulkan intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyat. Uni to‘liq ro‘yobga chiqarish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, bilim olishi, kasb egallashi, munosib mehnat qilishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Bu vazifa inson kapitalini rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, zo‘ravonlikning oldini olish va sog‘lom avlodni tarbiyalash kabi umummilliy maqsadlar bilan uzviy bog‘liq.

Oldimizda turgan besh ustuvor vazifa

Joriy yil 10-iyul kuni davlatimiz rahbarining yuksak ishonchi bilan zimlamizga oila va xotin-qizlar masalalari bilan ishlashga mas’ullik vazifasi yuklatildi. Bu ishonchni, avvalo, yurtimizdagi har bir ayol va har bir oila taqdiri uchun ulkan mas’uliyat deb qabul qildim.

Prezident Administratsiyasi rahbari tomonidan oldimizga oila va xotin-qizlar siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan beshta ustuvor vazifa qo‘yildi. Ularning har biri alohida yo‘nalish bo‘lsa-da, yagona maqsadga — ayol hayoti va oila farovonligida aniq, barqaror o‘zgarishlarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Birinchisi, iqtisodiy faol bo‘lmagan har bir xotin-qiz bilan manzilli ishlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish.

Ikkinchisi, xorijda mehnat qilayotgan xotin-qizlar va ularning oilalari bilan tizimli ishlash, farzandlarini davlat e’tibori va g‘amxo‘rligi bilan qamrab olish.

Uchinchi, og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan ayollarni ta’lim, kasb-hunar, psixologik va huquqiy yordam orqali jamiyatga ijtimoiy moslashtirish.

To‘rtinchisi, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik xavfini barvaqt aniqlashga xizmat qiladigan elektron tizimni joriy etish.

Beshinchisi, oilalarni mustahkamlash, ajrimlarni kamaytirish, yoshlarni oilaviy hayot va nikohga tayyorlash hamda bepul oilaviy psixologik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-iyul kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu vazifalarning eng muhim amaliy manzilli belgilab berildi: islohotlar natijasi, avvalo, mahallada va odamlarning kundalik hayotida sezilishi shart. Davlatimiz rahbari mahallani aholi uchun ishonch, tayanch va imkoniyatlar markaziga aylantirish, kundalik masalalarni ortiqcha ovoragarchiliksiz joyida hal etish hamda “mahalla yettligi”ning mas’uliyati va tashabbuskorligini oshirish zarurligini ta’kidladi.

Belgilab berilgan ushbu vazifalar mazmunan bir-birini to‘ldiradi. Bir tomonda, har bir xotin-qiz va oilaning aniq ehtiyoji, ikkinchi tomonda esa bu ehtiyojni eng yaqindan biladigan, muammoni barvaqt aniqlab, amaliy yechimga yo‘naltira oladigan mahalla tizimi turibdi. Oldimizdagi asosiy vazifa — oila va xotin-qizlar bilan ishlash sohasini mahallada aniq natija beradigan yaxlit boshqaruv tizimiga aylantirish.

O‘zgarayotgan savol va talablar

Sohadagi islohotlar ish uslubi bilan birga faoliyatni baholash mezonlarini ham o‘zgartirishni talab etmoqda. Endi “qancha tadbir o‘tkazildi?”, “qancha uchrashuv tashkil etildi?” yoki “qancha xotin-qiz ro‘yxatga kiritildi?” degan raqamlarning o‘zi yetarli emas. Asosiy savol — amalga oshirilgan choralar ayol va uning oilasi hayotida qanday ijobiy o‘zgarishlar uchun zamin yaratdi?

Kasbga o‘qitilgan xotin-qiz doimiy daromad manbaiga ega bo‘ldimi? Ko‘mak ko‘rsatilgan oilaning muammosi hal etildimi? Zo‘ravonlik xavfi mavjud xonadonda og‘ir oqibat yuz bermasidan oldin chora ko‘rildimi? Xorijda mehnat qilayotgan onaning farzandlari e’tibordan chetda qolmadimi? Oila qurayotgan yoshlar nikohning huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy mas’uliyatini anglab yetdimi? Hisobotdagi raqam emas, ana shu savollarga berilgan javob amalga oshirayotgan faoliyatimizning haqiqiy samarasini ko‘rsatadi.

Bu yondashuv, ayniqsa, iqtisodiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan ishlashda muhim. Birinchi ustuvor vazifani faqat bo‘sh ish o‘rni taklif etish, kredit ajratish yoki asbob-uskuna berish bilan bajarilgan deb bo‘lmaydi. Xotin-qizning iqtisodiy faol emasligi ortida kasb va malaka yetishmasligi, yosh farzand yoki parvarishga muhtoj oila a’zosiga qarash, salomatlik, transport, moliyaviy savodxonlik yoki bozorga chiqish imkoniyati bilan bog‘liq turli sabablar bo‘lishi mumkin.

Barchaga bir xil yechim taklif qilish o‘rniga har bir xotin-qizning qobiliyati, qiziqishi, oilaviy sharoiti va hududdagi iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib, individual yo‘nalish belgilash zarur. Bir ayol uchun zamonaviy kasb egallash maqbul bo‘lsa, boshqasi uchun masofaviy mehnat, kooperatsiya, kasanachilik, tadbirkorlik yoki tomorqadan daromad olish ma’qul va samarali bo‘lishi mumkin.

Ajratilgan kredit yoki tugallangan o‘quv kursi hali yakuniy natija emas. Natija xotin-qiz ish boshlaganida, mahsuloti bozorini



topganida, daromadi barqarorlashganida va bu o‘zgarish oilasining turmush darajasida aks etganida yuzaga keladi. Buning uchun ish o‘mi bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim va kunduzgi parvarish xizmatlari, transport, raqamli infratuzilma hamda qulay mehnat shakllarini ham rivojlantirish talab etiladi.

Yuksak insonparvarlik ifodasi

Oldimizga qo‘yilayotgan vazifalar bir nuqtada tutashadi: ayol qayerda bo‘lishidan va qanday hayotiy vaziyatga tushishidan qat’i nazar, davlatning e’tibori va himoyasidan chetda qolmasligi kerak. “Hech bir ayol o‘z



muammosi bilan qolib ketmasligi kerak” degan tamoyil kundalik shiorimizga aylanadi. Zero, ushbu g‘oya asosida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oilalardagi muammolarni hal etishga qaratilgan yuksak insonparvarlik ifodasi mujassam.

Xorijda mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan ishlashga faqat migratsiya masalasi

qamrab oladi. Davlat uchun migrantning pul o‘tkazmasi bilan birga uning sha’ni, huquqi, salomatligi va oilasining butunligi ham muhim.

Og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan xotin-qizlar bilan ishlashda ham bir xil qolipdan foydalanib bo‘lmaydi. Jazo muddatini o‘tab qaytgan ayol, zo‘ravonlikdan jabrlangan ona, uy-joyisiz qolgan xotin-qiz yoki nogironligi

qaramlik, ma’naviy va ruhiy bosimlar hukm surgan oilani har qanday yo‘l bilan saqlab qolishga urinish maqsadimiz emas. Asosiy maqsad — o‘zaro hurmat, ishonch, mehr va mas’uliyatga asoslangan oilalar sonini ko‘paytirish.

Buning uchun ishini muammo paydo bo‘lganidan keyin emas, yoshlar oila qurish ostonasiga kelmasidan avval boshlash zarur. Ularni to‘yga emas, oilaviy hayotga tayyorlashimiz lozim. Nikohning huquqiy va iqtisodiy jihatlari, oila byudjeti, farzand tarbiyasi, sog‘lom muloqot va nizolarni hal etish madaniyati bo‘yicha hayotiy bilimlar ko‘plab muammolarning oldini oladi. Bu mas’uliyat faqat qizlarga emas, yigitlarga ham birdek taalluqli.

Oilaviy psixologik xizmatlar aholi uchun yaqin, sifati va maxfiy bo‘lishi kerak. Psixologga ajrim yoqasiga kelganda emas, dastlabki tushunmovchiliklar paydo bo‘lgan paytda murojaat qilish madaniyatini shakllantirish muhim.

Bu ishlardan kutilayotgan natija, avvalo, mahallada namoyon bo‘ladi. Oilaning haqiqiy holati, xotin-qizning ehtiyoji va bolaning muammosi birinchi galda shu manzilda ko‘rinadi. Xotin-qizlar faoli vaziyatni barvaqt seza oladigan muhim bo‘g‘in, ammo barcha masalalar uchun yakka o‘zi javobgar emas. U muammoni aniqlab, tegishli mutaxassisga yo‘naltiradi va yechimgacha bo‘lgan jarayon uchun da’vogar bo‘lishi kerak. Mahalladagi mas’ullar esa muayyan oila manfaati uchun yagona jamoa sifatida birlashishi shart. Mahalla muammoni boshqa idoraga uzatadigan emas, yechim shakllanadigan asosiy manzilga aylanishi kerak.

Ijtimoiy yordamning haqiqiy ehtiyojmandga yetib borishi ham davlatga ishonch bilan bog‘liq. Muhtoj oilani ijtimoiy reyestrndan chetda qoldirish — uni kafolatlangan ko‘makdan mahrum etish, muhtoj bo‘lmagan shaxsni manfaat yoki tanish-bilishchilik asosida ro‘yxatga kiritish esa boshqa bir oilaning haqiga nisbatan tajovuzdir. Shuning uchun har bir qaror aniq mezonlar, xolis ma’lumot va shaxsiy mas’uliyatga asoslanishi shart.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning yaxlit tizimi

Belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha dastlabki amaliy ishlarni boshladik. Mas’ul vazirlik va idoralar ishtirokidagi ishchi guruh yig‘ilishida oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning yaxlit tizimini yaratish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va beshta ustuvor vazifani amalga oshirish mexanizmlari muhokama qilindi. Mahalladan respublika darajasigacha bo‘lgan hamkorlikni kuchaytirish, vazifalar takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik va har bir holatga individual yondashuvni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash hamda maxsus shtab faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilandi.

Oila va xotin-qizlar bilan bog‘liq vazifalarni bir idora imkoniyati bilan hal etib bo‘lmaydi. Bandlik va bank tizimi, tibbiyot, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim,

ijtimoiy himoya, mahalla, psixologlar va jamoatchilik bir maqsad yo‘lida harakat qilgandagina yaxlit natijaga erishiladi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi ana shu hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi va barcha darajada aniq natijaga da’vogarlik qiluvchi markazga aylanadi.

Yaqin istiqbolda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tizimli ish olib boramiz.

Birinchidan, har bir mahallaning oila va xotin-qizlar bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy xaritasini shakllantiramiz. Unda muammolar bilan birga bo‘sh ish o‘rinlari, kasbga talab, ijtimoiy xizmatlar va tadbirkorlik resurslari ham aks etadi.

Ikkinchidan, har bir murakkab holat uchun individual ish rejasini va mas’ul mutaxassis belgilaymiz. Fuqaro idorama-idora yurmaydi, davlat tizimi uning muammosi ortidan harakat qiladi.

Uchinchidan, xotin-qizlarni iqtisodiy faollashtirish dasturlarini hudud ixtisoslashuvi va bozor talabiga bog‘laymiz. Kasbga o‘qitishdan oldin real ish beruvchi yoki mahsulot bozori aniqlanadi, moliyaviy ko‘mak esa maslahat va savdo zanjiri bilan uyg‘unlashtiriladi.

To‘rtinchidan, “Xorijdagi ayol va uning oilasi” kompleks dasturini ishlab chiqamiz. U xavfsiz migratsiya, xorijda huquqiy himoya, farzandlar bilan ishlash va vataniga qaytgan ayolni munosib ish bilan ta’minlashni yagona tizimda qamrab oladi.

Beshinchidan, zo‘ravonlik xavfini barvaqt aniqlash elektron tizimini aniq harakat algoritmi bilan joriy etamiz. Har bir signalga kim, qancha vaqt ichida va qanday chora bilan javob berishi belgilab qo‘yiladi.

Oldinchidan, oilaviy psixologik xizmatlarning yagona milliy standartini ishlab chiqib, mutaxassislar malakasi, xizmat sifati, maxfiylik va natijani baholash mezonlarini belgilaymiz. Masofaviy maslahat va tezkor psixologik yordam imkoniyatlari ham kengaytiriladi.

Yetinchidan, yoshlarni nikohga tayyorlash tizimini tubdan yangilab, huquqshunos, psixolog, shifokor, iqtisodchi va tajribali oilalar ishtirokida hayotiy vaziyatlarga asoslangan dasturlarni joriy qilamiz.

Sakkizinchidan, mahalladagi xotin-qizlar faollarining ijtimoiy diagnostika, oila psixologiyasi, muzokara, zo‘ravonlik xavfini aniqlash, bandlik va tadbirkorlik bo‘yicha bilimlarni muntazam oshirib boramiz.

To‘qizinchidan, hududlar faoliyatini tadbirlar soni bilan emas, hal etilgan muammolarning barqarorligi, ayollar daromadining oshishi, takroriy zo‘ravonlik holatlarining kamayishi va fuqarolar rozligi bilan baholaymiz.

O‘ninchidan, jamoatchilik bilan ochiq muloqot va qayta aloqani kuchaytiramiz. Har bir murojaatni tizimni takomillashtirish uchun signal, asosli tanqidni esa xulosa chiqarish uchun imkoniyat sifatida qabul qilamiz.

Ishonchni amaliy natija bilan oqlaymiz

Bugun oila va xotin-qizlar sohasida ishlashning yangi bosqichiga qadam qo‘yyapmiz. Bu bosqichda muammo yuzaga kelganidan keyin chora ko‘rish emas, uni barvaqt aniqlash, barchaga bir xil yondashuv emas, har bir insonning hayotiy sharoitiga mos yechim topish, bajarilgan ishlar soni emas, ularning barqaror natijasi asosiy mezon bo‘ladi. Zero, oldimizdagi eng asosiy maqsad — oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarga oid har qanday muammoni barvaqt aniqlash, manzilli hal qilish va barqaror natijaga erishadigan yaxlit tizimni qaror toptirish.

Bu mas’uliyat yo‘lida tegishli vazirlik va idoralar, hudud rahbarlari, mahalla tizimi, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari imkoniyatlarini yagona maqsad atrofida birlashtirishga harakat qilamiz. Hech bir murojaat shunchaki qayd etilib, hech bir muammo bir idoradan boshqasiga yo‘naltirish bilan qolib ketmasligi lozim.

Biz faoliyatimizni qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan rejaralar bilan emas, hal etilgan muammolar, mustaqil daromadga ega bo‘lgan xotin-qizlar, xavfdan asralgan taqdirlar va mustahkamlangan oilalar bilan isbotlashimiz kerak. Yuksak ishonchni oqlashning eng to‘g‘ri yo‘li ham shu, sohadagi amaliy o‘zgarishlarni har bir mahalla va har bir xonadon hayotiga olib kirish.

Bugun energiyaning qadrini anglash uchun mutaxassis bo'lish shart emas. Bir necha daqiqaga o'chgan chiroq, to'xtab qolgan ishlab chiqarish yoki elektrsiz qolgan xonadonning o'ziyoq uning naqadar beqiyos ne'mat ekanini his ettiradi. Zero, energiya iqtisodiyotning nafasi, sanoatning harakatlantiruvchi kuchi, tadbirkorning ishonchi va millionlab insonlarning kundalik hayotini bir maromda ushlab turadigan hayotiy manbadir.

BARQAROR ENERGETIKA

IQTISODIY RIVOJLANISHNING BOSH OMILI

Dunyoda energetikaga munosabat keskin o'zgarib bormoqda. Asosiy e'tibor endi elektr ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmaydi. Mavjud quvvatlardan oqilona foydalanish, har bir kilovatt-soatning hisobini yuritish, yo'qotishlarni qisqartirish va energiyani iste'molchiga uzluksiz yetkazib berish strategik vazifaga aylandi. Chunki har bir yo'qotilgan kilovatt-soat iqtisodiyotning boy berilgan imkoniyati, ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot, aholi uchun yaratilmagan qulaylikdir.

Energiyaga ehtiyoj keskin ortib, uning ahamiyati tobora oshib borayotgan bugungi murakkab davrda energetika tizimi barqarorligi har bir davlat uchun muhim masalaga aylanmoqda. Chunki zamonaviy iqtisodiyotning biror tarmog'i energiya ta'minotisiz to'liq rivojlanmaydi.

27-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida yoqilg'i-energetika tarmog'ida kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishi ham bu borada alohida ahamiyat kasb etdi.

So'nggi o'n yilda O'zbekiston energetika sohasida katta o'zgarishlar davrini boshidan kechirdi. Sohaga xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun zarur huquqiy hamda tashkiliy asoslar yaratildi. Oqibatda energetika tarmog'iga 23 milliard dollar xorijiy investitsiya kirib keldi, hududlarda umumiy quvvati 9,5 gigavatt bo'lgan yangi elektr stansiyalari ishga tushirildi.

Biroq energetikadagi o'zgarishlar faqat yangi stansiyalar va jalb qilingan investitsiyalar bilan o'lganmaydi. Asosiy mezon — imkoniyatlarning odamlar hayoti va iqtisodiyotda qanday samara berishi. Shu bois, keyingi bosqichda e'tibor mavjud tarmoqlarni mustahkamlash, ishonchligini oshirishga qaratildi. Elektr va gaz tarmoqlari, podstansiyalar, transformatorlar hamda gaz taqsimlash qurilmalarini yangilash uchun yo'naltirilgan 30 trillion so'm ana shu maqsadga xizmat qildi. Chunki zamonaviy energetika nafaqat quvvat yaratishni, balki uni iste'molchiga sifatli va uzluksiz yetkazib berishni ham talab qiladi.

Katta tizimlarning holati ba'zan eng oddiy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Yaratilgan quvvatlar, yangilangan tarmoqlar va yirik sarmoyalarning samarasi bir savolning javobi bilan baholanadi: o'zgarishlar odamlar hayotida qay darajada sezilmoqda?

Chunki energetikadagi har bir uzilish ortida muayyan oqibat bor. Elektr ta'minotidagi muammo xonadondagi kundalik ehtiyojlarga, tadbirkorlik faoliyatiga va ishlab chiqarish sur'atlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun tizimdagi har bir qaromning asosiy bahosi uning inson hayotidagi samarasidir.

Bugun soha oldida turgan vazifa yangi quvvatlarni ko'paytirish bilan birga mavjud imkoniyatlarni to'g'ri boshqarishdan iborat. Aniq hisob, kuchli nazorat va shaxsiy mas'uliyat energetika tizimining eng muhim tayanchlariga aylanmoqda.

Joriy yilning iyun-iyul oylarida elektr tarmoqlarida qariyb 4 mingga avariya sodir bo'lgani, ayrim hududlarda aholi va tadbirkorlar 8-10 soatgacha elektrsiz qolgani tizimda oldindan rejalashtirish va profilaktika ishlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Tarmog'dagi 17,2 foizli elektr energiyasi yo'qotishlari ham sohadagi katta xizmat bo'ldi.

huddudning elektr va gazga bo'lgan ehtiyoji aniq hisoblanadi, qaysi mahallada qaysi tarmoq, transformator yoki gaz qurilmasi yangilanishi zarurligi oldindan belgilab olinadi. Yondashuvning ahamiyati shuki, endi muammoga uning oqibati yuzaga kelgandan keyin emas, oldindan yechim topish zarur bo'ladi.

Avariylarni kamaytirish, yo'qotishlarni qisqartirish va hisob-kitobni aniq yo'lga qo'yish uchun har bir hududning o'ziga xos rejasini shakllantirish zarur bo'ladi.

Bu borada tajribani, avvalo, alohida hududda sinab, keyin keng tatbiq etish ko'zda tutilgan. Yangi tizim uchun tanlangan Yangiyo'l tumanidagi 51 ta mahallada aholi, tadbirkorlar va ijtimoiy obyektlarning elektr hamda gazga ehtiyoji chuqur o'rganiladi.

Aslida, gap faqat eski tarmoqlarni ta'mirlash yoki yangi qurilmalar o'rnatish haqida emas. Asosiy vazifa hududlarning ertangi ehtiyojini oldindan ko'ra bilish, aholi va biznes uchun uzluksiz hamda sifatli energiya ta'minotini yo'lga qo'yishdir. Yangiyo'l tumanida sinovdan o'tayotgan mazkur tajriba kelgusida respublika miqyosida yangicha ishlar tamoyiliga aylanadi.

Energetikada kelajak uchun eng muhim o'zgarishlardan biri qarorlarni aniq ma'lumotlarga tayanib qabul qilishdir. Chunki zamonaviy tizimni faqat ko'proq resurs bilan emas, to'g'ri tahlil va tezkor boshqaruv bilan ham samarali ishlatish mumkin.

Shu ma'noda, sohada raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish zarur bo'ladi.

Yangi tashkil etiladigan Raqamlashtirish va sun'iy intellekt markazi ana shu vazifani bajaradi. U tarmoqdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, qayerda quvvat yetishmayotgani, qayerda yo'qotishlar ko'pligi yoki qaysi yo'nalishda qo'shimcha choralar zarurligini oldindan ko'rish imkonini beradi.

Bugun katta tizimlarni samarali boshqarish uchun ko'rish mumkin bo'lmagan jarayonlarni ham aniq ko'ra bilish kerak. Shu jihatdan ASKUE va ASKUG ma'lumotlarini sun'iy intellekt asosida tahlil qilish orqali shubhali iste'mol, ortiqcha yo'qotishlar va qarzdorlik holatlarini tez aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Yana bir muhim jihat, energetikada natijaga asoslangan boshqaruv tizimi shakllantiriladi. Endi rahbar va xodimlar faoliyati avariya soni, energiya yo'qotishlari, qarzdorlik darajasi va ta'mirlash ishlari bajarilishi kabi aniq ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Oqibatda shaxsiy mas'uliyat kuchayadi.

Kuz-qish mavsumi oldindan belgilangan vazifalar ham shu yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bugun tabiiy gaz yetkazib berishda qiyinchiliklar mavjud bo'lgan 1916 ta mahalla bor. Endi bu hududlardagi ehtiyoj alohida o'rganilib, xonadonlarni isitish tizimi, elektr infratuzilmasi va qo'shimcha energiya manbalari bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqiladi.

Chunki energetikada barqarorlik tasodifiy qarorlar bilan ta'minlanmaydi. Buning uchun oldindan aniq hisob-kitob, puxta reja va mas'uliyatli boshqaruv talab etiladi.

Eng muhim masala mavjud resursni iste'molchiga o'z vaqtida va samarali yetkazib berishdir. Suyultirilgan gaz ta'minotidagi bugungi vazifalar ham ana shu talabdan kelib chiqadi. Hozir 3 million 700 ming xonadon ushbu turdagi yoqilg'idan foydalanmoqda. Tizim raqamlashtirilib, tartibga solingan bo'lsa-da, gazni kafolati va o'z vaqtida yetkazib berish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Bunda xususiy sektor imkoniyatlaridan kengroq foydalanish muhim. Endi tadbirkorlarga o'zi import qilgan yoki birjadan sotib olgan suyultirilgan gazni aholi va biznes subyektlariga yetkazib berish imkoniyati yaratiladi. Dastlabki tajriba sifatida Andijon viloyatida yo'lga qo'yiladigan ushbu tizim yil yakuniga qadar shakllantirilib, keyinchalik boshqa hududlarga ham tatbiq etiladi.

Sohadagi yangilanishlar zamirida oddiy, ammo muhim maqsad mujassam: iste'molchini energiya bilan ta'minlash jarayonini yanada

Munosabat

IMKONIYAT BERILSA, NATIJA BO'LADI

2017-yilda Avstriyaga tahsil olish uchun ketganimda kelajak faoliyatimni qaysi yo'nalishda va qayerda davom ettirish haqida turli rejalarni bor edi. Ammo keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va shakllanayotgan qulay investitsiya muhiti vatanga qaytish qarorimni mustahkamladi. Bugun Prezidentimiz bilan tadbirkorlarning ochiq muloqoti arafasida ortga nazar tashlar ekanman, o'sha qaror hayotimdagi eng muhimlaridan biri bo'lganini yana bir bor his qilaman.

Avstriyada o'tgan yillar men uchun katta hayot va iqtisodiy tajriba maktabi bo'ldi. U yerda rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot qanday shakllanishi, xususiy sektor qanday qo'llab-quvvatlanishi, investorlar qaror qabul qilishda qaysi omillarga e'tibor qaratishi kabi jarayonlarni yaqindan o'rgandim.

Shu bilan birga, O'zbekistonda kechayotgan islohotlarni ham doimiy kuzatib bordim. Keyingi yillarda tadbirkorlar huquqlarini himoyalash, biznesga qulay sharoitlar yaratish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi o'rini oshirish borasida qilingayotgan ishlar menda katta qiziqish uyg'otdi.

Bu o'zgarishlarni nafaqat o'zim, balki xorijdagi hamkorlarimiz munosabatida ham ko'rdim. Avstriya va Germaniyadagi tadbirkorlar bilan suhbatlarimiz davomida ularning O'zbekiston bozoriga qiziqishi ortib borayotgani, mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar ular uchun ham muhim omilga aylanayotganini his qildim.

2022-yilda O'zbekistonga qaytib, Avstriya va Germaniyadagi hamkorlarimiz bilan muzokaralarni boshladik. Biz ularga nafaqat tayyor biznes rejalarni, balki yurtimizdagi iqtisodiy o'zgarishlar, tadbirkorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlar haqida ham so'zlash berdik.

Natijada Avstriya va Germaniyadan 15 million yevro miqdorida to'g'ridan to'g'ri investitsiya jalb qilinib, "Agro Food Gastro" korxonasi tashkil etildi. Bu loyiha biz uchun nafaqat investitsiya, balki mamlakatimizda shakllanayotgan yangi iqtisodiy muhitga ishonchning amaliy natijasi bo'ldi.

Korxonamiz faoliyatini parrandachilik sohasida zamonaviy klaster tamoyili asosida yo'lga qo'ydik. Chunki bu sohani faqat tuxum yoki go'sht ishlab chiqarish bilan cheklab bo'lmaydi. Bugun korxonalarimiz naslli parrandalar olib keladi, inkubatsion tuxum, zamonaviy texnologiyalar

asosida yem ishlab chiqaradi, iste'mol tuxumi yetishtiradi va tayyor mahsulotlar ichki hamda tashqi bozorlarga yetkazib beriladi. Bu yagona iqtisodiy zarfdir.

Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi korxonalarimizda 500 ga yaqin yurtdoshimiz mehnat qilmoqda. Hozir mahsulotlarimiz ichki bozor bilan cheklanib qolmayapti. Yiliga 10 million dollar miqdorida mahsulot eksport qilaymiz. Korxonalarimizning yillik aylanmasi 500 milliard so'mga yaqinlashdi. Bu natijalarga erishishda tadbirkorlik uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning o'rni katta.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha joriy etilgan mexanizmlar ishlab chiqaruvchilar uchun muhim qo'llab-quvvatlash bo'ldi. Biz bu imkoniyatdan samarali foydalanib, qaytarilayotgan mablag'larni yana ishlab chiqarishga yo'naltirmoqdami.

Korxonalarimizda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha har oy o'rta 2-3 milliard so'm qaytarilmoqda. Mablag' yangi uskunalar xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, texnologiyalarni yangilash va ish o'rnlari yaratishga sarflanmoqda.

Menimcha, davlat va tadbirkor o'rtasidagi hamkorlikning eng muhim jihati ham shunda. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyat tadbirkor zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Bu imkoniyatlar aniq natija bilan oqlanishi kerak.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari ana shu maqsadga xizmat qilmoqda. Ushbu muloqotlarda tadbirkorlarning takliflari eshitiladi, muammolarga yechim izlanadi va yangi tashabbuslarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

2024-yil 20-avgust kuni davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida qatnashish men uchun katta sharaf bo'ldi. Muloqot davomida Samarqand tumanidagi Ohalik massivining tog'li hududida 7 gektar maydonda zamonaviy dam olish maskani barpo etish rejami haqida gapirdim. Qiymati qariyb 15 million dollarga teng bo'lgan ushbu loyiha to'liq amalga oshirilganda yiliga 300 mingga yaqin mehmonga xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Joriy yil may oyida loyiha birinchi bosqichini ishga tushirdik. Bu bosqichga qariyb 5 million dollar investitsiya yo'naltirildi. Eng ahamiyatli, mablag' tashqi qarz yoki qo'shimcha sarmoya emas, balki o'zimizning ishlab chiqarish korxonalarimiz faoliyatidan olingan daromadlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu biz uchun muhim tajriba bo'ldi. Bir sohada yaratilgan barqaror ishlab chiqarish boshqa sohalar rivoji uchun ham asos bo'la oladi. Qishloq xo'jaligida yaratilgan qiymat bugun turizm va xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiya bo'lib kirmoqda.

Ohalikdagi loyihamizning asosiy maqsadi tabiat imkoniyatlarini zamonaviy infratuzilma

Bekzod AHMEDOV,
Samarqand viloyatidagi
“Agro Food Gastro”
korxonasi rahbari

bilan uyg'unlashtirish, ichki turizmni rivojlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish va hudud iqtisodiyotida yangi imkoniyatlar ochishdir.

Venada tahsil olgan yillarimda turli iqtisodiy modellarni o'rgandim. Ammo eng katta saboqni o'z yurtimdagi faoliyatim davomida oldim: iqtisodiyotning markazida inson manfaati turganligiga rivojlanish barqaror bo'ladi. Shuning uchun ham vatanga qaytish qarorimni hayotimdagi eng to'g'ri qararlardan biri deb bilaman. Biz bu yerda faqat korxonalar qurish emas, balki yangi imkoniyatlar yaratish, odamlarni ish bilan ta'minlash va mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishga hissa qo'shishni maqsad qilganimiz. Chunki taraqqiyot yaratilgan ish o'rnlari, yangi g'oyalarda va insonlarning ertangi kunga intilishida namoyon bo'ladi.



Bugunning gapi

ILM BOZORGA CHIQISHI UCHUN BITTA IDORA EMAS, BUTUN ZANJIR ISHLASHI KERAK

Bugun ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish va innovatsiyani bir-biriga bog‘lash masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berilmoqda. Asosiy talab aniq, ilmiy natija faqat hisobot, maqola yoki dissertatsiya doirasida qolib ketmasligi, iqtisodiyotga, tarmoqlarga va odamlar hayotiga real foyda berishi kerak. Chunki ilm-fan natijalarini tijoratlashtirish bitta qaror, bitta tanlov yoki bitta tashkilot bilan hal bo‘ladigan ish emas.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo‘ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak. Ana shu gap ilm-fanni tijoratlashtirishning eng qisqa va eng aniq mazmunidir.

Mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda mexanizmlar bor. Ilmiy loyihalar moliyalashtiriladi, startaplar qo‘llab-quvvatlanadi, tajriba-sinov va tijoratlashtirishga tayyorlash bo‘yicha tanlovlar o‘tkazilmoqda. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasida ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq etish maqsadi belgilangan. Shu bilan birga, hujjatning o‘zida real sektorda ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi, ilm-fan, ta’lim va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik hali past ekani ochiq ko‘rsatilgan. Demak, masala yo‘nalishni hayotda to‘liq ishlaydigan tizimga aylantirishda. Chunki tijoratlashtirishni faqat bitta vakolatli organ yoki uning tizimidagi bitta tashkilot zimmasiga tashlab qo‘yish bilan natijaga erishish qiyin. U tashkilot yo‘l ochishi, tanlov e‘lon qilishi, platforma yaratishi, muvofiqlashtirishi mumkin. Lekin ishlanna hayotga chiqishi uchun tarmoq vazirligi muammoni aniq aytishi, korxona sinov maydonini berishi, universitet olimni tayyorlashi, tadbirkor bozorni topishi, investor tavakkal qilishi kerak. Bu yondashuv bejiz emas. Davlatimiz rahbarining turli soha va tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan qarorlarda ham ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, har yili “yo‘l xaritalari” asosida loyihalarni amalga oshirish, bunda tarmoq tashkilotlarining o‘z mablag‘lari va imkoniyatlaridan foydalanish vazifalari belgilab berilmoqda. Ya’ni innovatsiya faqat ilmiy tashkilotning ishi emas. Har bir tarmoq o‘z muammosini ilm bilan yechishga mas’ul bo‘lishi kerak.

Xalqaro tajribada ham shunday. AQSHda umumiy siyosat “Bayh-Dole” tizimi orqali belgilanadi: davlat mablag‘i hisobiga yaratilgan ixtirolar universitet va tashkilotlar tomonidan boshqariladi, patentlanib, amaliyotga olib chiqiladi. Amaliy ish esa universitetlarning “Technology Transfer Office” yoki “Technology Licensing Office”lari orqali yuritiladi.

Masalan, Massachusetts texnologiya institutida “Technology Transfer Office” o‘quv yurti nomidan patentlangan ishlanmalarni kompaniyalarga litsenziyalaydi, kompaniyaning biznes modeli, bozori, resursi va mahsulotni tijoratlashtirish imkoniyatini baholaydi. Stenford universitetida esa “Office of Technology Licensing” texnologiyalarni baholaydi, bozorga moslaydi, kompaniyalar bilan ishlaydi. Litsenziya muvaffaqiyatli bo‘lsa, royaltidan olimlar, kafedra va universitet ham manfaatdor bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada esa bu zanjir milliy innovatsion ekkotizim sifatida ishlaydi. “Innovate UK Catapult Network” biznes, akademik muhit, hukumat, reguliatorlar, investorlar va foydalanuvchilarni bir joyga bog‘lab, texnologiyalarni laboratoriyadan bozorgacha olib chiqishga yordam beradi. Ular real sharoitda sinov maydonlari, R&D — Research and Development (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) infratuzilmasi, bozor tahlili, moliyalashtirishga chiqish va tijoratlashtirish bo‘yicha ko‘mak beradi.

Demak, xalqaro tajribadan xulosa shuki, milliy darajada siyosat, qoida va moliyalashtirish muvofiqlashtiriladi. Universitet va ilmiy tashkilotlarda texnologiyalar transferi ofislari ishlaydi, tarmoq markazlari, korxonalar, tadbirkorlar va investorlar esa ishlannani bozorga olib chiqadi. Bizda ham tijoratlashtirish zanjiri shunday ishlashi kerak. Avval har bir tarmoq o‘zining og‘riqli muammosini aniq yozadi. Masalan, suv tejash, hosilni oshirish, energiya sarfini kamaytirish, kasallikni erta aniqlash, mahsulot tannarxini



Asror NOROV, Innovatsion rivojlanish agentligi direktori vazifasini bajaruvchi

tushirish yoki ta’lim sifatini yuksaltirish. Keyin shu muammo ilmiy buyurtmaga aylantiriladi. Olim mavzuni faqat “o‘zimga qiziq” deb emas, yechimi kutilayotgan muammoga bog‘lab tanlaydi.

Uchinchi bosqichda olim yolg‘iz qoldirilmaydi. Uning yoniga korxona, tarmoq mutaxassisi va bozorni tushunadigan maslahatchi biiriktililadi. Chunki ilmiy g‘oya boshidan amaliyot bilan bog‘lannasa, keyin uni bozorga olib chiqish qiyinlashadi.

To‘rtinchi bosqichda ishlanma laboratoriyada qolib ketmaydi. Uni dalada, sexda, klinikada, maktabda yoki korxonada sinab ko‘rish uchun alohida mablag‘ va sharoit yaratiladi.

Beshinchi bosqichda texnologiyalar transferi jamoasi ishga tushadi. U patent, litsenziya, bozor tahlili, biznes model, investor bilan muzokara va huquqiy himoya masalasida olimga yordam beradi.

Oltinchi bosqichda ishlanma hali sinovdan o‘tayotgan paytdayoq uning bozor egasi aniqlanadi. Texnologiyalar transferi ofisi yoki tijoratlashtirishga mas’ul jamoa tadbirkor va investor bilan bog‘lanib, bu mahsulot kimga kerak, qanday sotiladi, qancha turadi va uni kengaytirish mumkinmi — shu savollarga javob topadi. Shunda ishlanna tayyor bo‘lgandan keyin xaridor izlab yurilmaydi, aksincha, bozor talabi boshidan hisobga olinadi.

Yettinchi bosqichda manfaat aniq taqsimlanadi. Ishlanma daromad keltirsa, olim ham, ilmiy tashkilot ham, tadbirkor ham manfaatdor bo‘lishi kerak. Manfaat bo‘lmasa, harakat susayadi.

Sakkizinchi bosqichda natija real ko‘rsatkichlar asosida o‘lchanadi. G‘alvur suvdan ko‘tarilganda o‘rtaga tashlanadigan savol “Nechta maqola yozildi” emas, “Ishlanma qayerda ishladi, qancha xarajati tejadi, kimga foyda berdi, qancha daromad keltirdi?” kabi shaklda berilishi kerak.

Shu nuqtada Prezidentimizning yana bir muhim talabi yodga tushadi. 2026-yil 3-aprel kuni davlatimiz rahbari oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishishi jarayonida ilmiy klasterlar mahalliy va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari, ilmiy muassasalar hamda sanoat korxonalari hamkorligidagi konsorsium sifatida ishlashi belgilandi. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirishga qaratilgan yangi tizim taklif etildi.

Bu nimani anglatadi? Tijoratlashtirish endi “olim yaratadi, keyin kimdir sotadi” degan eski yondashuv bilan emas, konsorsium, klaster, tarmoq va bozor birga ishlaydigan tizim orqali rivojlanishi kerak.

Ilm-fanni tijoratlashtirish nima uchun muhim? Chunki ilm javonda yotsa — xarajat. Amaliyotga kirs — daromad. Korxonada ishlasa — texnologiya. Odamlarga foyda bersa — taraqqiyot.

Ilmning qadri faqat maqola, patent yoki dissertatsiya bilan emas, hayotda qaysi muammoni hal qilgani bilan ham o‘lchanishi kerak. Shuning uchun tijoratlashtirish olimni bozorga haydash emas. Bu yuqorida keltirganimiz — hisobot uchun emas, natija uchun ishlash tamoyilini ilm-fan sohasida amalga ishlatishdir.



Mamlakat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri aholining ijtimoiy himoya bilan qamrov darajasi, ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash samaradorligi va inson qadri qay darajada ta‘minlanganidir. Yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar ham aynan inson manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish va har bir fuqaro uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Jumladan, ijtimoiy himoya tizimini mutlaqo yangi asoslarda tashkil etish, sohadagi tarqoq funksiyalarni birlashtirish, aholiga ijtimoiy xizmatlarni professional va manzilli shaklda ko‘rsatish maqsadida bundan uch yil oldin Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Bu qaror ijtimoiy himoyani shunchaki nafaqa yoki moddiy yordam berish tizimidan inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi kompleks mexanizmga aylantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Navoiy viloyatida ham ushbu islohotlar amaliy samara ko‘rsatmoqda. O‘tgan yillar davomida bajarilgan ishlar tahlili ijtimoiy himoya sohasida yangi yondashuvlar shakllanganini, xizmatlar sifati va qamrovi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Ilgari ijtimoiy yordam ko‘p hollarda murojaatni ko‘rib chiqish va moddiy ko‘mak berish bilan cheklangan bo‘lsa, bugun tizimning asosiy vazifasi fuqaro muammosini bartaraf etishga qaratildi. So‘nggi ikki yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholidan 299,3 mingta ariza kelib tushgan bo‘lib, 218,8 mingtasi bo‘yicha ijobiy natijaga erishilgan.

Agentlik faoliyat boshlagan vaqtda aholiga dastlab 46 turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatildi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig‘i Qahramon Rajabov. — Hozir xizmatlar soni 130 ga yaqinlashib qoldi. Bu ijtimoiy xizmatlar oilalarga kompleks yordam berishga qaratilgan. O‘tgan yili kambag‘al, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan oilalarga quyosh panellari qo‘yib berilib, ular uchun daromad manbai yaratildi. Shuningdek, joriy yilda viloyatda 84 ta oila xonadoni ta‘mirlab berildi. Ayni vaqtda bu jarayonning ikkinchi bosqichi davom etaypti va 50 ta xonadonni ta‘mirlashni reja qilganmiz. Ijtimoiy himoya milliy agentligi oldiga qo‘yilgan maqsadlardan yana biri — inklyuziv jamiyat qurish. Bu nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida baravar ishlash, sport bilan shug‘ullanish, dam olish huquqlarini ta‘minlab berishdir. Ularni ishga olgan ish beruvchiga davlat tomonidan soliq imtiyozlari yaratilgan. Daromadlar bo‘yicha va 3 oy maosh to‘lab kelgan ish beruvchiga subsidiya ko‘rinishida imtiyozlar bor. Maktablarda ularga to‘siqsiz muhit yaratilib, maxsus pedagoglar jalb etilayotir. Bugungi kunda viloyatda 420 bola inklyuziv ta‘lim olmoqda.

Viloyatda bu borada o‘tgan davr mobaynida amalga oshirilgan chora-tadbirlar nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki inson kapitaliga sarmoya kiritish, ijtimoiy xavf-xatarlarning oldini olish va aholining muhtoj qatlamlari uchun munosib hayot sharoitini yaratishga qaratildi. Bu ijtimoiy himoya sohasi nafaqat moddiy ko‘mak, balki reabilitatsiya, psixologik yordam, parvarish xizmatlari, ijtimoiy moslashuv, ta‘lim va bandlikka ko‘maklashish kabi yo‘nalishlarni ham qamrab olgani bilan ahamiyatli. Muhimi, ijtimoiy himoya sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ijtimoiy yordam haqiqatan muhtoj insonlarga yetib borishi, qaror qabul qilish jarayonlari inson omili ta‘siridan xoli bo‘lishiga erishilmoqda.



Tahlil



IJTIMOY HIMOYA ko‘ngillarga xotirjamlik ulashayotgan tizim



Xususan, viloyatda “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘larini ajratishda avtomatlashtirilgan tizim joriy qilinishi orqali 3901 kishiga 5 milliard 700 million so‘m ajratildi. Shuningdek, Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi qarori doirasida ijtimoiy reyestrga kiritilgan, davlat ta‘minoti toifasidagi mehnatga layoqatsiz 1-guruh nogironligi bo‘lgan a‘zolari bor oilalar xonadonlarini energiya tejamkor qilib ta‘mirlash yo‘lga qo‘yildi.

Karmana tumanidagi Navro‘z mahallasida yashovchi Ozoda Odilova ham ana shunday imkoniyat, ko‘mak tufayli bugun o‘z orzusiga yetdi. Nogironligi bor farzandini yolg‘iz parvarishlab kelayotgani bois, uy-joyini ta‘mirlashga imkoniyat qo‘l edi. Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlar natijasida bu oilada mavjud masala yechimini topdi.

Tumanning Narpay mahallasida yashovchi Hurriyat Po‘latovanning o‘zi va turmush o‘rtog‘ida nogironlik bor. Uy-joyi ta‘mirlanib, muammoga yechim topildi. Bundan tashqari, Hurriyat opaga tikuv uskunasi olib berilgani oilaga qo‘shimcha daromad topish imkonini berdi. Bugun uning qo‘li qo‘lga tegmay, ko‘rpa-to‘shak, turli liboslar tikib, yaxshi daromadga ega bo‘lmoqda.

— Kechagi kunimizdan bugunimiz yaxshi, — deydi Hurriyat Po‘latova. — Bir necha oy oldin mahalla ijtimoiy xodimi uyimizga kelib, xonadon ta‘miri uchun ko‘mak berishga tavsiya qilganimizni aytganda juda xursand bo‘ldik. Uyimiz oldin qavvalatlash, isitish tizimi yaxshi emas edi, qishda bitta xonada yashashga majbur edik. Hozirgi kunlar orzu edi. 20 kunda ta‘mirlab, barcha sharoitni qilib berishdi. Suyanadigan odamlarimiz borligini va ishonchli chetda emasligimizni his qilgan. Hozir farzandlarim ham ijtimoiy xodim tavsiya qilgan bepul to‘garaklarga qatnashyapti.

Mahallalardagi ijtimoiy xodimlar nafaqat xizmat ko‘rsatuvchi, balki og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan oilalarning yaqin ko‘makchisi, maslahatdoshi va ishonchli tayanchi sifatida muhim o‘rin tutadi. Ular aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy adolati ta‘minlash va jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

— Mahallamizda 5 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi va shundan 176 nafari nogironligi bo‘lgan fuqaro, — deydi Karmana tumanidagi Narpay mahallasi ijtimoiy xodimi Rohat Farmonova. — 43 ta oila ehtiyojmand sifatida reyestrga olingan. Ularning barchasiga yordam ko‘rsatilmoqda. Hozir mahallamizda yakka-yolg‘iz yashaydigan 4 fuqaro bor va har kuni ularning holidan xabar olamiz. Tavsiyamiz asosida shu yilning o‘zida bir necha oila xonadonlari ta‘mirlab berildi. Shuningdek, ularning barqaror daromadga ega bo‘lishi uchun ham zarur yordam ko‘rsatilmoqda.

Viloyatdagi mahallalar kesimida 47 mingta oila o‘rganilib, 15200 tasi kambag‘al oilalar reyestriga kiritildi. Ularining 61 mingdan ziyod a‘zosi bilan individual ishlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Natijada 9482 ta oila daromadi oshirilib, kambag‘allikdan chiqarildi. Minglab oilalar turmush darajasi yaxshilandi, farzandlarining ta‘lim olish imkoniyati kengaydi. Ijtimoiy reyestring qizil toifasida turgan 464 ta oilaga quyosh panellari o‘rnatilib, bu orqali ular uchun uzoq muddatli passiv daromad manbai yaratildi.

— Mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan munosabat ham tubdan o‘zgardi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig‘i Qahramon Rajabov. — Endi asosiy e‘tibor ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ta‘lim olishi, mehnat qilishi va o‘z iqtidorini namoyon etishiga qaratilmoqda. Bu borada viloyatda nogironligi bo‘lgan 41 mingdan ortiq shaxsning ehtiyoji o‘rganilib, elektron bazasi

shakllantirildi. 2977 kishiga sport bilan shug‘ullanish uchun yo‘llanma berildi. 296 ta adaptiv sport guruhi tashkil etildi. O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar bilan ishlashda ham kompleks yondashilmoqda. Jumladan, “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida 1230 kishi yangi ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi. Yolg‘iz keksa, nogironligi va mehnat fronti qatnashchisi bo‘lgan 3961 kishi bepul sihatgoh yo‘llanmalari bilan ta‘minlandi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan kunduzgi parvarish markazlariga nogironligi bo‘lgan bolalar jalb qilinmoqda. Bu markazlar nogironligi bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalari uchun yaqin ko‘makchiga aylandi. Chunki ular ota-onalarga mehnat qilish, band bo‘lish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratmoqda.

— Viloyatimizda davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil qilingan 22 ta kunduzgi davolash maskanida og‘ir toifadagi 320 bola parvarishlanmoqda, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi bosh mutaxassisi Farangiz Shokirova. — Har bir bolaning kasallik holatidan kelib chiqib xizmat ko‘rsatiladi. Kunduzgi parvarishlash maskanlarini tashkil qilgan tadbirkorlik subyektlariga o‘z vaqtda subsidiya to‘lanyapti. Bu yerga kelayotgan bolajonlarga transport xizmati uchun ham kompensatsiya berilmoqda. Shu vaqtda qadar nogiron bolalari bilan band bo‘lgan ota-onalar ushbu xizmatlar tufayli endilikda bemalol mehnat qilib, daromad topmoqda.

Inson uchun eng katta boylik mehr va e‘tibordir. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, faol hayot kechirishi va oila bag‘rida yashashi ularning ruhiy holati hamda kelajakka ishonchi uchun muhim ahamiyatga ega. Nurota tumanida joylashgan “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi — mehr va g‘amxo‘rlik maskani. Bu yerda nogironligi bo‘lgan fuqarolar davlat himoyasida bo‘lib, hayotlarini mazmunli o‘tkazishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Ularga sifati tibbiy, ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatiladi. Parvarishlanuvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun to‘garaklar va mehnat terapiyasi mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilgan.

— Bu yerda parvarishlanayotgan fuqarolar uchun mehnat terapiyasi juda muhim, — deydi Nurota “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi ijtimoiy xodimi Hilola Berdiqulova. — Mehnat terapiyasi bilan shug‘ullanganlarning holatida ijobiy o‘zgarish seziladi. Bu ularning mustaqil hayotga moslashishga yordam beradi. Muassasamizda tashkil qilingan adaptiv sport turlari sababli 39 parvarishlanuvchining jismoniy funksional holati qayta tiklandi.

Muassasada ijtimoiy xodim tomonidan oilaviy aloqalarni tiklashga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Muntazam o‘tkazilayotgan videosuhabbatlar natijasida avval qarindoshlari bilan aloqasi uzilgan 98 parvarishlanuvchining oilaviy munosabatlari qayta tiklandi. Quvonarlisi, 19 kishi jamiyatga moslashtirilib, oilasi bag‘riga qaytarildi. Shuningdek, mustaqil hayot kechirish imkoniyati yuqori bo‘lgan 30 parvarishlanuvchi maxsus dastur asosida hayotiga tayyorlanmoqda. Ular uchun o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy moslashuv bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yilgan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi amaliy ishlardan yana biri bolalarni va xotin-qizlarni ta’ziy va zo‘ravonlikdan himoya qilishdir. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari tomonidan kompleks va manzilli ijtimoiy xizmat ko‘rsatilib, jabrlangan ayollarning hayotini tiklash, ularni jamiyatga qayta moslashtirish hamda mustaqil hayot kechirishiga ko‘maklashilmoqda.

Agentlik tizimida tashkil etilgan kichik hajmli ijtimoiy himoya ko‘mak markazlari ham og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan, ta’ziy va zo‘ravonlikdan jabrlangan qizlar uchun ishonchli maskan vazifasini bajarmoqda. Ularda zo‘ravonlik quybuni bo‘lgan qizlarga xavfsiz yashash sharoitlari yaratilib, huquqlari tiklanishi, ruhiy holati yaxshilanishi hamda jamiyatga qayta moslashishi uchun zarur ko‘maklar ko‘rsatiladi. Har bir murojaatchi muammosini hal etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Markaz faoliyatining muhim jihatlardan biri murojaat etgan qizlarning shaxsiy ma‘lumotlari va xavfsizligini ta‘minlashdir. Bu esa ularning o‘zini erkin his qilishiga, muammolarini ochiq bayon etishiga va hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda Navoiy viloyatida ham ana shunday markaz tashkil etilib, belgilangan tartib asosida ishlamoqda.

Ijtimoiy himoya sohasida erishilgan natijalar yurtimizdagi islohotlarning hayotiy samarasidir. Muhimi, ushbu o‘zgarishlar markazida raqamlar emas, inson taqdiri turibdi.

G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Mustaqillik tufayli xalqimizning ko‘p yillik orzulari amalga osha boshladi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, milliy o‘zlikni anglash borasida keyingi yillarda qilingan ishlarining sanab adog‘iga yetolmaysan kishi.

2026-yil 29-iyul, 152-son

www.yuz.uz



yuz.uznews

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uz_news



yuz.uz_news

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

NOMI ULUG‘, QADRI BALAND, RUHI TETIK BUXORO!



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Yangi O‘zbekiston bugun muazzam, shonli, zafarlarga boy milliy mustaqilligining 35 yillik to‘yiga ko‘tarinki ruhda, jiddiy tayyorgarlik ko‘rmoqda. Iqtisodiyotning barqaror rivoji, turmush farovonligi bardavom yaxshilanishi, jamiyat ijtimoiy-ma‘naviy muhiti tobora yuksalishi, jahon hamjamiyatining xayrixohligi, do‘stlarimiz safi kengayib borishi — bularning bari O‘zbekistondagi real hayotning yorqin ko‘rinishi.

etuvchi majmua hududida maqbara, hazrat dahmasi, bir vaqtning o‘zida 500 namozxonni sig‘dira oladigan masjid, muzey, balandligi 17,6 metrli minora, keng ayvonlar, darvoza hamda zamonaviy infratuzilma barpo etildi.

Yangi O‘zbekistonning baxtiyor yoshlari

Biz, yoshi kattalar “Buxoro maktabi”, “Qorako‘l maktabi” degan so‘zlarni ko‘p bora eshitganmiz. Bu so‘zlar zamirida Buxoro yoshlarining ilm-fan, ta‘lim sohasidagi intilishlari, erishgan yutuqlari, jahon olimpiadalari, turli fan tanlovlarida qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlari yotibdi. Ular har tomonlama yetuklik sari intilmoqda.

Buni viloyatga tashrifimiz chog‘ida yana bir bor his etdik. Buxoro shahridagi 1-bolalar musiqa va san‘ati maktabida “Musika san‘atining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan ma‘rifiy tadbir barchaning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga amin bo‘ldik.

Tadbirda O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova, Yunus Rajabiy nomidagi Milliy maqom instituti professori Salohiddin Azizboyev, qator san‘atkorlar maktab o‘quvchilari bilan ijodiy uchrashuvda yosh ijodkorlarning bilimga chanqoqligi, milliy san‘atimiz va madaniyatimizga qiziqishini alohida e‘tirof etdi.

O‘sha uchrashuvda “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati rahbari Baxtiyor Husanov bir gapni aytdi: “Prezidentimiz madaniyat va san‘at xodimlari, adiblar vakillari bilan yaqinda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda “bugungi musiqamizda, teatr, kino asarlarida milliy ruh yetishmayapti”, degan edi. Men bugun buxorolik yoshlarning shijoatini ko‘rib, milliy ruhdan shakllanayotgan bo‘lg‘usi ijodkorlarning katta avlodi tarbiyalanmoqda degan xulosaga keldim.”

Tadbir doirasida Zamira Suyunova, Salohiddin Azizboyev, Adolat Ismoilova, Sardor Shavkatov, Tohirbek Hamidov kabi san‘atkorlarning chiqishlari maktab o‘quvchilari, ularning ota-onalari uchun mahorat maktabi bo‘ldi. Bizni hayratga solgan narsa shu bo‘ldiki, o‘quvchilar yozgi ta‘limga qaramay, maktabda tashkil etilgan turli to‘garaklarda faol ishtirok etmoqda, san‘atning nozik sirlarini o‘rganishga qiziqishi tobora ortib bormoqda.



Qorako‘l tumanidagi 1-umumta‘lim maktabida o‘tkazilgan “Maktabimga kitob sovg‘a qilaman” loyihasi ham foydali, ham ibratli bo‘ldi, deyish mumkin. Ushbu zamonaviy, barcha sharoitlar yaratilgan maktab bitiruvchilari orasidan 20 ga yaqin akademik, fan doktori, professor yetishib chiqdi.

Yana bir holatga to‘xtalish lozim deb o‘ylaymiz. Shu maktab bitiruvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, yirik faylasuf olim Jamila Shermuhamedova tadbir doirasida ta‘lim dargohi kutubxonasiga 300 dan ortiq kitob sovg‘a qildi. Bolalarning xursandligini bir ko‘rsangiz edi!

“Buxoro” yozgi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohidagi ijodiy uchrashuv ham esda qolarli darajada, qiziqarli o‘tdi. Bolalar bilan ijodiy muloqot qizg‘in kechdi, intellektual o‘yinda har bir o‘quvchi g‘olib bo‘lishni istadi, ularning faol harakatlari ko‘rib ko‘zlar quvondi. Tadbir ishtirokchilariga “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati tomonidan sovg‘alar ulashildi, katta konsert dasturi namoyish qilindi.

Millat fidoyilari hech qachon unutilmaydi

“Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining eng ta‘sirli tadbirlari “Millat fidoyilari” loyihasi asosida o‘tkazildi. Hozirgi kunda Buxoro viloyatida Ikkinchi jahon urushining uch qatnashchisi istiqomat qilmoqda. Ijodiy guruh ishtirokchilari Olot tumanidagi Yosh botir mahallasida keksalik gashitini surayotgan 101 yoshli Hojimurod ota Bektoshev xonadonida bo‘ldik. Otaxon 1941-yilda Ikkinchi jahon urushiga safarbar etiladi. Armiya safidan yetti yil deganda — 1951-yilda qaytib keladi.

Hojimurod ota kevinchalik 50 yildan ortiq vaqt davomida qishlog‘idagi maktabda dars berdi. “Xalq maorifi a‘lochisi” unvoniga ega bo‘ldi. 7 farzand, 35 nabira, 45 chevara ardog‘ida. Har kuni O‘zbekiston televideniyesida beriladigan xabarlarni intiqlik bilan kutadi, mamlakat ichki va tashqi siyosatidan xabardor. Uning tetikligi, xotirasining kuchligi, tafakkur salohiyatini aytmaysizmi?! Otaxon milliy ashula va qo‘shiqlar shaydosi ekan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Gulbahor Erqulova tomonidan kuylangan “Feruz-1” ashulasiga hamnafas bo‘ldi.

Hojimurod ota uchrashuvimiz oxirida barchamizni duo qildi. Ijodiy guruh otaxonga



sovg‘alar, nabira, chevaralariga esa maktab uchun jamlamalar topshirdi.

Xuddi shu loyiha doirasida yana bir tadbir Olot tumanining Gulistonobod mahallasidagi Boyxotin qishlog‘ida istiqomat qilgan,

1998-yildan Toshkent viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat tartibini saqlash xizmati tizimida xizmat qilgan, 1998-yil 26-sentabrda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanini hududida o‘ta xavfli qurollangan jinoyatchini ko‘lga olishda og‘ir yaralanib, mardlarcha halok bo‘lgan O‘ktam Rahmatov xonadonida bo‘lib o‘tdi.

Marhumning xotirasiga Qur‘on tilovat qilinib, duolar o‘qildi. Oila a‘zolariga sovg‘alar topshirildi.

Xuddi shunday ma‘naviy uchrashuv Havzak mahallasida yashagan, 2000-yilda Sarisoy va Uzun tumanidagi mudhish voqealarda Vatan tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi uchun jon fido qilgan G‘ofirjon Rajabov xonadonida ham tashkil etildi.

Marhumning onasi Muhabbat To‘qsonova, akasi G‘ofirjon Rajabov, mahalla faollari, yaqin qarindoshlari, yoshlar ishtirok etgan bu tadbir tom ma‘noda vatanparvarlik, yurga sodiqlik, mustaqillikning buyuk ne‘matligi, uni ko‘z qorachig‘idek asrash har birimizning muqaddas burchimiz ekanini yana bir bor yodimizga soladigan “ma‘naviyat darsi”ga aylanib ketdi.

Vatanga, samimiy xalqimizga cheksiz sadoqat ruhida o‘tgan tadbirlardan yana biri Buxoro tumanidagi Kunjiqal‘a mahallasida joylashgan 9-madaniyat saroyida bo‘lib o‘tdi. Tadbirda chegara qo‘shinlarining 350 dan ortiq harbiy xizmatchisi oila a‘zolari, askarlar, mahalla yoshlari ishtirok etdi.

“Nuroni” jamg‘armasi Buxoro tumani bo‘limi rahbari Xayrulla Bafoyevning so‘zlariga quloq tutaylik: “Bugun dunyoda tinchlik va xavfsizlikka qarshi tahdidlar tobora ko‘payib bormoqda. Bu esa barchamizdan ogohlikni, yurtimizdagi islohotlar jarayonida faol ishtirok etishni, tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetishni talab etmoqda. Shuning uchun barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib yanada jipslashishimiz, davlatimiz mustaqilligini, mutafakkir bobolarimiz yaratib ketgan ilmiy-ma‘rifiy merosimizni avaylab-asrashimiz zarur”. Haq gap.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar, eng avvalo, inson qalbida aks etsin

Prezidentimiz yaqinda Bekobodga tashrifi chog‘ida odamlar mahallasida, shahrida kechayotgan o‘zgarishlarni his qilishi, ularning samarasini kundalik hayotida ko‘rishni kerak, dedi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda, jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, islohotlar odamlar

ongi, tafakkurida tahlil qilinmas ekan, kishilar barcha o‘zgarishlarning oddiy kuzatuvchisi bo‘lib, bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanmas ekan, ko‘zlangan maqsadga erishish aslo mumkin emas.

Shu bois, bugun butun O‘zbekiston ahli tub o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga, yangi g‘oya va tashabbuslarni olg‘a suradigan fidoyi insonlarga aylanib boryapti. Buni O‘zbekistonning eng chekka, Turkmaniston bilan chegara hududdagi Olot tumani, uning Jayhunobod mahallasi misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Mustaqillik to‘yi” festivali doirasida “Obodlik ko‘ngildan boshlanadi” loyihasi bizni juda ko‘p yangiliklardan boxabar qildi. Mahalla ko‘chalarida daraxtlar katta did va farosat bilan ekilgan, ular barcha talablar darajasida parvarish qilinmoqda. Odamning havasi keladi! Ko‘chalar asfaltlangan. Asfalt oq rangli bo‘yoqlar bilan mashinalar harakati uchun xuddi shaharlardagidek moslashtirilgan.

Mahalla faoli Anvar Odilov xonadoniga kirib boramiz. Darvozadan kiribko, insonning ko‘ngli tog‘dek ko‘tariladi. Ozoda, ko‘rkam hovli, gulu rayhonlar ekilgan, uzumlar g‘arq pishib yotibdi. Mevali daraxtlar ko‘p.

Eng muhimi, bu xonadonda yashovchilarning o‘zaro ahilligi, biri-biriga mehr-muhabbati. Anvar aka 75 yoshda bo‘lsa-da, g‘ayrati, shijoatiga hayron qolmas kishi.

Men uchun kechirilmaydigan odam — dangasa odam. Har kuni ertalabdan 5-6 kishidan iborat faollar mahallani aylanamiz, odamlar bilan tillashamiz, tozalik, fuqarolarimiz orasidagi ahillik — mana bizning mavzuimiz. Bir necha yillar bo‘ldiki, mahallamizda birota jinoyatchilik sodir etilmadi, — deydi otaxon.

Bizning kelganimizni eshitib, bir zumda tumonat odam to‘plandi. Ko‘chani o‘zida o‘ziga xos konsert dasturi boshlanib ketdi. Ayniqsa, Rajabiyalar sulolasi vakili Aziz Rajabiyning kuy-qo‘shiqlari barchani rom etdi, ko‘ngillarni shod qildi, ruhияtni ko‘tardi. Ha, obodlik ko‘ngildan boshlanadi, deganlariga biz aynan shu yerda, O‘zbekistonning eng chekka chegara hududida yana bir bor guvoh bo‘ldik.

Shukr qilaylik, ammo harakatdan to‘xtamaylik

Xalqimizning ajib xislatlarini yuzlatlari bor-da! Shukr so‘zi minnatdorlik, mamnunlik, qanoat va ne‘mat beruvchiga hamd aytish ma‘nolarini anglatadi. Biz shukr qiluvchilarmiz. Biroq Shofirkon kashtachilik maktabi tajribasini o‘rganib, “Buxoro Azteks” MCHJga qarashli “Amirtex” tikuvchilik korxonasida bo‘lib, shukr qilish va ayni paytda harakatni to‘xtatmaslik barcha yutuqlar garovi ekanini yana bir bor angladik.

“Guliston” mahalla fuqarolar yig‘inida Muhabbat Qo‘chqorovanning kashtachilik uy-muzeyida bo‘lganimizda kashta oddiy bezak emas, balki xalqning tarixi, ma‘naviyati, estetik tafakkur tarzini avlodlarga yetkazuvchi bebaho meros ekanini tushundik.

Bugun butun shofirkonliklar respublika “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Muhabbat Qo‘chqorovadan haqli ravishda faxrlanadi. U qator xalqaro hunarmandlar ko‘rik-tanlovlari, festivallar g‘olibi bo‘lgan. Ayni paytda uning ishini qizi Gulhayo Tojiyeva davom ettirmoqda. Bu maskan o‘ziga xos ijod maktabiga aylangan.

Shofirkonda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha ham qator ibratli ishlar qilinmoqda. Masalan, “Amirtex” tikuvchilik majmuasida 1200 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Zamonaviy tikuv uskunolari bilan jihozlangan korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar, asosan, xorijga eksport qilinadi.

Bu yerda har bir daqiqa oltin kabi qimmat. Shuning uchun Toshkentdan borgan san‘atkorlar to‘quvchilar huzurida tushlik paytida ajoyib konsert dasturini taqdim etdi.

Mahalla — ma‘naviy makon

Mustaqillik tufayli xalqimizning ko‘p yillik orzulari amalga osha boshladi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, milliy o‘zlikni anglash borasida keyingi yillarda qilingan ishlarining sanab adog‘iga yetolmaysan kishi.

Bugun dunyoda axloqsizlik tobora avj olib borayotgan, milliy qadriyatlar qadrsizlanib ketayotgan bir davrda mamlakatimizda mahalla institutiga, diniy qadriyatlarni targ‘ib etishga qaratilayotgan e‘tiborni butun xalqimiz, millatimiz xursandlik bilan kutib olmoqda.

Shu maqsadda ilk marotaba Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamda “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati hamkorligida haj safarini ado etib kelgan hoji ota, hoji onalar bilan seminar-trening o‘tkazildi.

2026-yilda Buxoro viloyati bo‘yicha 801 fuqaro haj amallarini bajarib qaytdi. Buxoro shahridagi Mir Arab oliy madrasasida viloyatning barcha tumanlaridan kelgan 100 ga yaqin hoji bilan mahallalarda ma‘naviy-ma‘rifiy muhiti mustahkamlash, milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, jamiyatda ezigulik, bag‘rikenglik va birdamlik g‘oyalarni keng targ‘ib etish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimiz hayotida, odamlar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida islom dinining tutgan o‘rni, davlat tomonidan islom dini arkonlarini mustahkamlash borasida qilinayotgan ishlar haqida ma‘lumot berildi. “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati rahbari Baxtiyor Husanov hojilar mahallalarda olib borishi lozim bo‘lgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, ularning yangicha, kreativ usullari bo‘yicha o‘rtloqlashdi.

Biz hojilar uchun yaratib berilayotgan barcha imkoniyatlar, imtiyozlardan to‘liq foydalanaymiz, — dedi G‘ijduvon tumanidagi “Gajdumak” mahalla fuqarolar yig‘ini faoli Bekmurod hoji ota Bozorov. Shu bilan birga, yelkamlizda katta mas‘uliyat yuki turganini ba‘zan unutib qo‘yayotganga o‘xshaymiz. Har birimiz mahallamizda, qishlog‘imizda sodir bo‘layotgan axloqsizliklar, ma‘naviyatsizliklar uchun mas‘ul ekanimizni unutishga aslo haqqimiz yo‘q.

Seminar-treningda viloyat bosh otinoyisi Rizvov hoji ona Bahromova xotin-qizlar tarbiyasi, oila muqaddasligi, qaynona-kelin munosabatlari haqida kuyinib gapirdi. Viloyat bosh imomi o‘rinbosari, Buxoro shahri bosh imomi Otabek Avezov har bir tumanunda shunday seminar-treninglar o‘tkazish zarurligini qayd etib, “Biz, hojilarning vazifasi oilalar muqaddasligini saqlab qolish, yoshlarni turli tahdidlardan asrashdan iboratdir”, dedi.

Tadbir so‘ngida yoshlar tarbiyasi, mahalla hamjihatligi yo‘lida faol ishtirok etgan qator hojilar “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyatiga a‘zo qilinib, sertifikatlar taqdim etildi.

Qo‘shiqlarda Vatan ishq, millat madhi

Buxoro viloyatiga uch kunlik safarimiz, har bir ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirimiz qo‘shiq, kuy, she‘riyat bazmisiz o‘tmadi. Barcha tumanlarda “Milliy navolar” loyihasi doirasida musiqiy kechalar tashkil etildi.

Tadbirlarda “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zolari — O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi Adunabi Ibrohimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Gulbahor Erqulova, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Bobur Bobomurod, taniqli san‘atkorlar Salohiddin Azizboyev, Aziz Rajabiy, Adolat Ismoilova, Oyul Abdurahmonova, Iroda Iskandarova, Sardor Shavkatov, Tohirbek Hamdamov va boshqalar ijrosidagi kuy-qo‘shiqlardan minglab buxoroliklar bahramand bo‘ldi.

Buxoroda “Mustaqillik to‘yi” festivallarini tumanlarda tashkil etilayotgan “Sohil bo‘yi” dam olish maskanlarida o‘tkazish oddi tusiga kiribdi. Bu barchani quvontirmoqda. Musaffo osmon ostida, turli ranglardagi chiroqlar bilan bezalgan, moviy suv havalzalari bo‘ylarida tashkil etilgan festivallar davom etmoqda.

Yurtimizdagi barqaror tinchlik, millatlarda bag‘rikenglik, o‘zaro hamjihatlik, ko‘ngillar obodligi, turmush farovonligi sharoitida o‘tayotgan bu tadbirlar boshlanishi. Bu bayram davom etaveradi. To‘ylar to‘ylarga ulanaversin.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746.
29609 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy